

179-10676

MIQ PREZIDIUMI JANIDAGI MARKAZIJ JANI  
ALIFBE VA TIL-TERMIN QOMITASI

Prof. OJAZI ALIM

O Z B E K  
LAHÇALARINI  
TASNIFDA BIR TAÇRIBA



OZSSR DAVLAT NAŞRIJATI  
TAŞKENT — 1936

OzSSR MIQ PREZIDIUMI JANIDAGI MARKAZIJ JANI  
ALIFBE VA TIL—TERMIN QOMITASI

PROF. QAZI ALIM JUNUS

Oz. D.Y.K.  
36 r. 222  
1935 y.

O Z B E K  
LAHÇALARINI  
TASNIFDA BIR TAÇRIBA

С 34021

№ 10676

16226

VI / 0g



OzSSR DAVLAT NAŞRIJATI  
TAŞKENT—1935

1935 y.

535

Mas'ul muharrir: Q. Ramazan.  
Tex. muharrir: Şarrahmudov.  
Indeks S/E.

Ozlit № 187/t. Şartnama № 131 35. Tiraz 1000+12?. Standarti 62×94. Basımaya  
berildi 23/IX-35 j. da. Basışga ruxsat etildi 25/XI-35 j. da.  
Ozdavnaşrını İkramov namidagi basımaxanası. Zakaz № 289.

## SOZBAŞI ORNIDA.

Ozbek eli qurama bir el, turli turk, manqul, slav, fars va arab qabilalaridan tuzulgan qurama bir ittifaqdir. Bu ittifaqqa kirgan qabilalar arasida milad Isadan 10—15 asr ilgari Kicik Asijada katta sjasij rol ojnagan, ba'zi Avropa tarixcilari ham lisa nijatcilari tamanidan fin-oqur guruhiga mansub qilingan va ba'zilarini tarafidan manqul deb tanilgan (hetit<sup>1</sup> mitan) larnin qaldirilari boluvi jaqin ihtimallardan bolib, bu kunda Samarqand okrugi-da Mitan va Bulunqur rajonlarida jashavci ozbek mitanlarini korganimizdek, miladdan ikki-uc asr ilgari Ortaasijada kucli davlat tashkilati qurib, miladdan son 5 nci asrgaca sjasij ahamijatini joqatmaqan ujsun (ujsun — usun) yaqanlilarni<sup>2</sup> bu kunda ozbek ittifaqida kormakdamiz. Miladi II asrda Aral denizi bojigaca kelib jershasganliklari Avropaga malum bolgan<sup>3</sup> va VIII asr miladda sharqij Turkistandan bujuk ujqur davlati tuzib, kop vaqtqaca sjasij istiqlalijatini saqlab kelgan ujqurlar ozbek ittifaqida a'za bolib muhum rol ojnav kelganlar. VI asr miladida Ortaasijada kucli turk davlati tuzgan turklarnin<sup>4</sup> qaldirilari sanaşga mumkun bolgan va bu kunda Samarqand, Qaşqadarja, Ançan okruglarida va Taçikistanda jarim kocmanci halda jashavci turklar (barlas, kaltataj) ozbek ittifaqida a'zadirlar. Bulardan vaşqa sharqij va qarbij Turkistannin içtimaij, sjasij hajatida muhum rol ojnagan qarlij, najman, qara xtaj, uz, miç, juz, manqit, qipcaq kabi qabilalarnin-da ozbek ittifaqida, u ittifaq tuzulgan davrdan vaşlav. ta bu kungaca iştirak etib kelganliklari malum.

<sup>1</sup> Проф. А. Захаров. — Хеттский вопрос, журнал „Новый Восток“ № 1, стр. 251 — 258.

Доктор Гуго Винклер и др. — „История человечества“, перевод под редакцией В. В. Бартольда, том III, стр. 46 — 47, 98, 110 — 125.

Ак. Н. Я. Марр. По этапам разв. яфет теории, стр. 297 — 299.

<sup>2</sup> В. В. Радлов. — К вопросу об уйгурах, стр. 80.

Ак. Бартольд. — История культурной жизни Туркестана, стр. 4 — 16.

А. Н. Самойлович. — Западный Туркестан со времени завоевания арабами до монгольского владычества, стр. 36 — 37.

<sup>3</sup> Ак. В. В. Радлов. — К в. пресу об уйгурах, стр. 128.

<sup>4</sup> Ак. В. В. Бартольд. — История культурной жизни Туркестана, стр. 10.

Bulardan başqa ozbek elinin tuzulişida carkəs, rus, taçik va arablar qatnaşqanliqlari, bir taraftan, ozbek şaçaralarida qajd etilgan bolsa, ikkinci tamandan, bu hal tilimizdagi lsanij faktlar arqali tasdiq etiladi. Ozbek elinin tuzulişi mundaj murakkab, qurama ekan, unın tili ham şundaj turli kollektivlarnın tilidan qurulqan qurama til boluşi tabiiydir. Haçiqatan ham ozbek elinin tili başda çuda kop majda kollektivlarnın mustaqil tillaridan qurulqan bolib, natural xoçalik davrida bu tillar arasidagi farqlarni joqatiş ucun xizmat qilaturqan içtimaij-iqtisadij faktorlar qajaj başlanqic şaklda bolganlikdan, har til kollektivniñ hajati oz cegasarida qamalis qalib, bu tillar arasidagi farqlar ham kucli bolgan. İşlabciqariş işlarniñ takamuli arqasida keñajgan içtimaij alaqa bu ajrim tillar arasidagi alağanı kucajtira baruv arqasida bu ajrim tillar arasidagi nahvij, luqavij, fonetik va morfologik ajirmalar joqala barib, natıçada u ajrim tillar bir brisiga nisbatan birar lahça va ja birar şeva haliga keladilar.

„Tillar qarındaşlıqınıñ ozi turli qabilalarnın ozara alaçalari arqasida tavuş tiliniñ luqavij-mafkuravij qismida, oşandaq tavuş va morfologik — şaklij qismida umumij xatlar pajda boluşi demakdir ku“.

Demakki, ozbek eski va çanlı şeva ham lahçalari bir „ana“ tildan urcib ciqqan butaqlar enas, balki umumij ozbek tilini tuzuşda qatnaşuci ajrim tillardir. Feodalizm davrida ozbek qabilalar ittifaqida bir birisi blan toqnaşib, ozara alaqa va qarama-qarşi tasir qila başlagan bu ajrim tillar rus kapitalizmi hakimligi davrida jana ham jaqınraq munasabatga kirişib, aralaridagi farqlarni bargan sajin joqata barganlar va ozara jaqınlaşa barganlar. Bu jaqınlaşuv intilişi hazirgi sotsializm quruş davrida (ajrim rajonlarniñ bir birisi blan içtimaij-iqtisadij alaçası kucajı arqasida) jana ham kucajdi va kucajmakdadir. Sotsializm qurulişiniñ bujuk adimlar blan aldinga barişi, osuvi va mahkamlanişi arqasida şahar blan qışlaq birligi juzaga ciqib, sinfij asasga qurulqan eski turmuşniñ izini qurutqandek, u turmuşniñ mrasi bolgan ozbek şeva va lahçalari arasidagi farqlarni ham joqatmaqda va joqataçaqdır. Mana bu hal Ozbekistanniñ hamma rajonlarida jaşavci ozbeklarniñ şevalaridagi azmi, kopmi bolgan farqni tamam joqatib, hazirgi adabij tilimizniñ barca şevalar ucun birdek tuşunişli boluşini keñajtirib, bular arasida hecbir farq qojmajaçaq. Albatta, bundaj adabij tilni quruşda bir jaki ikki lahçagina qatnaşmasdan, Ozbekistanniñ hamma rajonlarida, şahar va qışlaqlarida jaşavci va sotsializm qurulişida faal qatnaşuci hamma ozbek proletar va kolxoz ammasiniñ çanlı şeva va lahçalari qatnaşçaqdır. Ozbek xalqiniñ eski adabij tiliniñ tuzulişida ilgaridan feodallar tili, sonra şahar burzuazijasi blan qışlaq qulaqlariniñ tili hakim vazijat algan bolsa, ozbek millatiniñ jani adabij tilida proletar va kolxoz ammasiniñ tili esas bolmaqda va bolçaqdır. Demak sotsializm quruş davridagi ozbek adabij tilini quruşda proletar-kolxoz amması, sotsializmni quruşda iştirak etiş arqali, ja'ni sotsialistik işlabciqariş protsesida faal qatnaşib turib,

oz sheva va lahçalari bilan birga u til quruluş işida ham iştirak et- çakdir, braç bu til quruluşida heç şubhasiz ozbek proletariatiniq ti- li jetakci bolaçaqdir.

Biz, tilcilar, bu perspektivani aniq korib, jañi ozbek adabij ti- lini quruluş işiga komak berişimiz kerak, biz ozbek proletariat va kolxoz ammasinin sotsializm quruluş arqasida kelib ciqqan til sa- hasidagi içtimaij zakazini baçarişimiz kerak; ozimizniq hamma ilmiq tekşiriş işlarimizni oşa içtimaij zakazga qaratib aliş berişimiz kerak.

Mana şu zakazni baçariş ucun ozbek proletar va kolxoz amma- sinin til protsesini tekşira, organa bariş, hamma sheva va lahça- larimiz arasidagi munasabatni, u sheva va lahçalarimizniq xususiat- larini organib, sheva va lahçalar arasidagi anlaşda, sozlaşda jaqin- liqni ta'min qiliş ucun xizmat qilmaq kerak.

„Ozbek lahçalarini tasnifda bir taçriba“ namli bu asarimizni eñe oşa içtimaij zakazga xizmat arzusida majdanga atamiz.

Bu asarimizda ozbek lahçalariniq fonetik, morfologik va lek- sik xususiatlari qisqaca korsatilgan, braç eñ muhim, asasiq fone- tik, tus morfologik ham leksik farqlarqina qajd etilgan. Şuniq bilan birga lahça va şevalarimizniq gapirişda, çanlı muxabarada qandaj alişini, sozlarniñ gapda, bir mavzu', bir maqsad atrafida, dialektik birlaşuvini korsatiş, ularniq nahvij tuzuliş bilan oqucilarni amaliq jolda tañiştiruv maqsadi bilan lahça va şevalarimizdan kopgina ornak berdik.

Bu ornaklar 1) 1922 — 1923 jillarda ozbek bilim haj'ati taman- dan ilmiq komandirovka alib, sabiq Taşkent, Samarqand okrugla- riga barganimda toplangan materiallardan; 2) 1926 — 1929 — jillarda toplangan materiallarimdan; 3) 1929 jilda Ozbek Davlat ilmiq tek- şiriş instituti tamanidan Qaşqadarja, Surxandarja okruglari bilan Taçikistandagi Laqaj taçik rajonlariga barib toplagan materialla- rimdan; 4) jana oşa institut tamanidan 1930 jilda Xarazmga barib toplagan materiallarimdan; 5) 1932 jilda Farqana vadisiga ozbek mađanij quruluş ilmiq tekşiriş instituti tamanidan barganimda top- lagan materiallarimdan tuzuldilar. Albatta, u materiallarniñ ham- masi bu jerga kirmadi, balki ulardan ajrim parcalargina kirdi. Qalqan materiallar ajrim monograflar halida işlanar.

## ORNAKLARNIÑ IMLASI

Men bu materiallarni toplaganda, bajnalmilal ilmiq fonetik alifbe (M. Ф. А.) bilan jazganman; braç Ozbekistan basmaxanala- rida ilmiq imlaga tegişli harflar joqliqi saçavli bu asardagi ornak- larni ozbek alifbesi bilan berişga maçbur boldim. Şuniq ucun lahça va şevalarimizniq ba'zi fonetik xususiatlarini ozbek alifbesi arqali korsatib bolmadi. Braç bu koruna almagan fonetik xususiatlarniñ ma'naga tasir çahatidan semantik rollari joqdir, ularniq faqat ta- laffuz çahatidangina ahamijati bolaladi.

Men ornaklar imlasida uzun unlilar ucun, xah bəsit va xah murakkab (diftong) bolsin, ikki nuqta (:) aldim.

i — harfini tar, lablanmagan, til aldidan ciqaturqan, qajat qisqa ajtilaturoqan tavuş ucun aldım. Bu tavuş hamma ozbek lahça va şevalarida uc daraça acılışğa egadir:

a) Japiq boqunlarda, agarda bu japiq boqundan ilgari va son aciğ boqun bolmasa, u (i) harfi çuda tar, lablanmagan, til uci tavuşini ifada qiladi.

b) Agar bu (i) aciğ boqunda jaki bu aciğ boqundan ilgari va son kelgan japiq boqunda bolsa, kenrak (i) tavuşini beradi.

c) Agar aciğ boqun sozniñ axirida bolsa, (i) harfi 3 daraça aciqliğ blan acilgan va (i) tavuşı blan (e) tavuşı arasida, brağ (e) tavuşığa jaqınraq, orta (9>) tavuşini korsatadi.

y harfi blan lablangan (i) tavuşini bildiramiz. Bu tavuş ham butun lahça va şevalarımızda uc daraça acılış blan aciladi.

Japiq boqunda 1° daraçalı aciqliğ blan acilib, eñ tar lablangan til uci unlisini, ortada kelgan aciğ boqunda 2° daraçalı aciqliğ blan lablangan unlini, agar bu tavuş — harf, soz axirida kelsa, 3° daraçalı aciqliğ blan acilib, lablangan (e) ga jaqin (9°) tavuşini ifada qiladi.

Oşandağ (t) harfi ham uc turli talaffuzni oz ustiga aladi: a) agarda (b) harfi japiq boqunda kelsa va bu japiq boqundan ilgari va son aciğ boqun bolmasa, bu tavuş eñ tar, qisqa, lablanmagan til arqasi unlisi (m) ni ifada qiladi.

Agarda bu harf — tavuş soz başida jaki soz ortasida aciğ boqunda kelsa, 2 nci daraça aciqliğ blan (b) tavuşini bildiradi.

c) Bu (b) harfi sozniñ axiridagi aciğ boqunda kelsa, ucinci daracada kenajib, (<9) tavuşini ifada qiladi.

Arqa, tar, lablangan (u) tavuşı ham butun lahçalarımızda oş uc daraça blan acılış qanunığa bojsunadi:

a) Bu tavuş japiq boqunda, agarda bu japiq boqundan son jaki ilgari aciğ boqun kelmasa, 1° aciqliğ blan acilib, eñ tar, lablangan til arqasi unlisini ifada qiladi.

b) Bu u harfi sozniñ başida, ortasida aciğ boqunda, ja bu aciğ boqundan son jaki ilgari turqan japiq boqunda kelsa, ikkinci daraça aciqliğ blan acilgan til arqasi tar (U) unli tavuşini bildiradi.

c) Agarda bu til arqasi tar unlisi sozniñ axiridagi aciğ boqunda kelsa, bu halda u harfi ucinci daraça, aciqliğda bolgan, tar, lablangan (<9°) tavuşini bildiradi. Mana bu juqarida korsa tilgan ald va arqa tar unlilarnıñ uc daraça aciqliğ blan acılışğa hamma lahçalarımızda riajat qilinadi va bularnıñ ozbek tiliniñ talaffuzini belgilaş, organış va orgatiş ucun katta ahamijati bar.

Ozbek tar unlilarnıñ bundaj uc daraça aciqliğ blan acılış qanunini bilmagan kşilar, ja'ni ozbek tilini organucilar talaffuzda çuda faxş xatalar qilib, eşituci ozbekniñ lisanij, zavqini buzib, oz gapiniñ ta'siriga zarba berişğa jol acadi. Şuniñ ucun ozbek talaffuzini organucılarga bu masalalarnıñ katta ahamijati bar.

Bu asarga qoşulqan ornaklarnı oquqanda ham şu tar unlilarnıñ juqarida korsatilgan orunlarda aciğ, japiq hçalarda va aciğ hiçalalarnıñ başda, ortada va sonda boluşığa kora oqumağ kerak.

E—Harfi orta ken, ald, lablangan tavuş ucun işlatiladi. Braq bu harf ozbek—qipcaq lahçasinin Farqana qipcaqlari şevasida ikkinci va undan soñ kelgan boqunlarda (e) tavuşı blan (  $\mathcal{E}$  ) tavuşı arasidagi (Σ) unlisi ucun ham işlatilgan. Demak Farqana vadisida Voroşilov (sabiq Qorqantepa) rajoni blan Ajim ajonida jaşavci qipcaqlar tilidan alingan ornaklarnin sozlarida birinci boqundan kejingi boqunlarda (e) harfi jazilgan bolsa, (e) oqumasdan, undan kenrak, ja'ni (Σ) oqumaq kerak.

ə—Harfi (e) tavuşinin lablangani ucun emas, balki juqarida korsatilgan (Σ) tavuşinin lablangani ucun işlatilgan. Bu (ə) harfi blan korsatilgan mazkur tavuş çanlı lahçalarimizda soz başida tar (y) tavuşidan başlab, sonra birdan kenajib, (  $\mathcal{E}$  ) haliga keladi. Şunin ucun bu (ə) harfi kop şevalarimizda soz başida diftong, ja'ni murakkab bolib (  $\mathcal{E}$  ) halida ajtiladi.

Agar bu tavuş soz ortasida, ajniqsa soz axirida (masalan, bu ornaklarda, Farqana qipcaqlari tilidan berilgan ornaklarda) bəsit (  $\mathcal{E}$  ) halida talaffuz etiladi. Farqana qipcaqlari tilidan berilgan ornaklarda birinci boqunda jazilgan (ə) harfini diftong halda soñi boqunda kelgan (ə) harfini bəsit (  $\mathcal{E}$  ) qilib oqumaq kerak.

Bu qipcaq tilida soz axirida kelgan (ə) ja'ni (  $\mathcal{E}$  ) tavuşı başqa şevalarimizdagi (  $\mathcal{E} \cdot 11 \text{ ə}$  ) jaki (e) tavuşı ornida keladi.

• Ə harfi ald ken lablanmagan (  $\mathcal{X}$  ) tavuşı ucun alingan.

Bu (ə) harfi hamma lahçalarimiznin butun şevalaridan alingan ornaklarda, soz başida (  $\mathcal{X}$  ) tavuşı ucun işlatilgan.

Ozbek—qipcaq lahçasinin hamma şevalaridan alingan ornaklarda birinci boqundan soñ kelgan boqunlardaqi (ə) larni (  $\mathcal{X}$  ) tavuşidan tarraq (e) tavuşidan kenrak, braq (e) tavuşiga majil oqumaq kerak.

Xijva—urganc lahçasida bu (e) dan ken (ə) dan tar bolgan (Σ) tavuşı birinci boqunda kelgandek, songi boqunlarda ham kelib, (  $\mathcal{X}$  ) tavuşiga majil ajtiladi.

Turk—Barlas (Cqataj) lahçasinin çanlı şevalarida (Taşkent, Ançan, Cimkant, Turkistan, Sajram şevalarida) soz başida (ə) harfi (  $\mathcal{X}$  ) tavuşini ifada etib, ikkinci boqunlarda undan tarraq (Σ) tavuşini ifada qiladi.



○ harfi arqa, orta kenlikda bolgan laʼlangan tavuʼni korsatadi. Taʼskent ʼsevasida bu tavuʼ baʼqa ʼsevalarimizdagi (o) larga qaraqanda tarraq ajtilib, (o) blan (o) tavuʼlarinin ornini basadi. Taʼskent ʼsevasidan maxraʼ ʼahatidan bu tavuʼ orta (mixed) vazijatda boladi.

Ozbek — qipcaq lahʼasiga mansub ʼsevalarda soz baʼsida, umuman birinʼ boqunda kelgan o harfi kenlikda (o) tavuʼsiga, jaʼni rus (o) siga jaqin bir tavuʼni korsatadi, braq bu lahʼanin kop ʼsevalarida, masalan, qipcaq, Gurlan, Qirq, Laqaj ʼsevalarida bu baʼ boqunda kelgan arqa ken laʼlangan tavuʼ murakkab (diftong) halida ajtiladi, jaʼni u tavuʼi blan baʼlanib, o tavuʼi blan bitadi. Birinʼ boqundan kejingi boqunlarda murakkablanib joqalib, (o) harfi o tavuʼsini bildiradi.

Sozning baʼ boqunida kelgan (o) ning (u) tavuʼi jaʼni tar, arqa laʼlangan blan baʼlanib, jaʼni murakkab halda boluʼi Xiva — Urganc lahʼasida ham korunadi.

ʼSundaj qilib, ozbekning kop ʼsevalarida bundaj murakkablanib bar. ʼSunin ucun, jaʼni bizning ken laʼlangan (o) tavuʼimiz tar (u) tavuʼi blan baʼlanganligidan tatarlar va ruslar bu tavuʼimizni tar (u) halida eʼitaʼilar.

a (jazma) harfi arqa, ken, laʼlanmagan tavuʼ ucun alingan. Bu tavuʼ Taʼskent va Xijva tillarida (alma) bujruqinin baʼsida kelgan tavuʼdir. Bu tavuʼ Taʼskent tilida mustaqil bir fonemdir.

Bu tavuʼ butun ʼsevalarimizda ham bar bolib, sozning hamma boqunlarida kela aladi.

a (Basma ʼakli) en ken laʼlanmagan tavuʼ bolib, Taʼskent tilida qanaqa, sadaqa, saqana sozlarinin hamma boqunlarida kelgan orta, en ken rus (a) tavuʼsiga oxʼaʼ tavuʼdir. Bu tavuʼ Taʼskent tilida mustaqil fonemdir.

Arqa, ken (a) tavuʼi laʼdan ciqqan unsiz tavuʼlaridan ilgari jaki son kelsa, laʼlanib, (a)—teskari (v) halida keladi. Bu hal hamma ʼsevalarimizda bar.

Braq bundaj laʼlangan arqa (a) hec bir ʼsevalarimizda mustaqil fonem emasdir. ʼSunin ucun ornaklar imlasida bunqa rijaʼat qilmadim, jaʼni bu harfni iʼlatmadim.

Jana ornaklar imlasi toqrisida ʼuni ajtib otmak kerakki, butun ʼsevalarimizda ikki ʼaransiz unsiz arasida kelgan qisqa, tar laʼlangan y, u va laʼlanmagan „i“ va „b“ tavuʼlari kelsa, ʼaransiz unsizlar taʼsiri astida, u tar unililar ham ʼaransizlanib (y, u, i, b) halida eʼitiladilar: tut, tbtbq, pit kabi.

Taʼskent tilidan alingan ornakda tar, laʼlanmagan ʼora tavuʼlar bolmasdan, taq bolganligidan va (i) tavuʼidan kora (b) tavuʼsiga jaqinraq bolganligidan, men qattiq va jumʼaq sozlarda ham (b) harfini iʼlatdim.

Tar, laʼlanmagan uzun unli Taʼskent tilida uzun (b:) tavuʼsiga emas, balki uzun (i:) tavuʼsiga jaqin eʼitiladi; ʼsunin ucun Taʼskent ʼsevasi ornegida undaj uzun unli ucun (i:) tavuʼsini (besit va murakkablarda ham) iʼlatdim.

Hazirgi rasmij alifbemiz çanlı şevalarimizda bolgan hamma unsiz tavuşlarini ifada qiliş ucun ham jetişmajdi. Şunin ucun çanlı şevalarimizdan alingan ornaklarda, u jaki bu şevamizga xas bolgan bazi unsizlarni korsatib bolmadi.

Masalan Xijva — Urgane lahçasida, ajniqsa unın Xijva şeva-sida til ortasi tavuşlaridan japiq (смычный) çaransiz. ( ʃ ), unın

çaranlisi ( ʃ̣ ) va bu songinin burunlaşqani ( ʃ̣̣ ) tavuşlari var; bular, aleatta, ornaklarnın aslida qajd etilgan bolsalar-da, bu asar-ga qoşulgan ornaklarda, basmaxanalarimizda vajnalnilal fonetik alifbe joqliqi savabli, korsatilaalmajdi.

Taşkent şevasida til ortasida aciq (щелевой), çaransiz tavuş var, ja'ni "j" nın çaransizi var. Bu tavuş vajnalnilalij fonetik alifbe (МФА) da (ç) harfi blan korsatilgan. Biznin praktik alifbemizda (ç) harfi til ucidan ciqaturqan japiq, çaranli, pişildaq affrikat tavuş-ni korsatadi.

Biz ham bu asarga qoşulqan ornaklarda u (ç) harfini til orta-sidan ciqaturqan çaransiz, aciq tavuş ucun emas, balki til uci affrikati ucun işlatdik, til ortasida, aciq çaransiz ucun ozbek alif-besida maxsus harf joqliqidan u tavuşini ornaklar imlasida qajd eta almadim.

Hamma lahçalarimizga kirgan çanlı şevalarimizda laklug (velar) japiq (смыч) çaranli tavuş, ja'ni q tavuşinin çaranlisi var. Bu çaranli japiq velar tavuş ba'zi şevalarimizda soz başida (masalan, çalajir-da) ham sonida, kop şevalarimizda soznın sonida, arqa (ŋ) tavuş-idan son keladi. Mana bu tavuşni ham ornaklar imlasida korsatib bolmadi. Xijva şevasida til arqasidan ciqaturqan japiq va cuqur k tavuşi var, bu tavuş ham maxsus belgi blan korsatilmadi.

Texnik savablar arqasida korsatilmagan bu unsiz tavuşlar şeva-larimiznin talaffuz xususijatlarini korsatmak ucun ahamijatli bolsal-larda, braq ma'naga ta'siri joqdir, şunin ucun ularnin korsatilmass-ligi kop zarar beralmajdi. Bu asardagi ajrim msallarni va ornak-larni oquqanda, juqarida ajtilgan nuqtalarqa diqqat va riaja qilib oquşlari kutiladi.

Msal va ornaklarnın imlasida şu juqarida korsatilgan kamcilik-lar bolsada, u ornaklar ajrim şevalarimiz toqrisida toqri tassavur berib, u şevalarnın bir-birila va adabij tilimizga munasabatlarini korsataladi deb umid qilamiz.

## TASNIF ASASLARI.

Bu vaqtoqaca ozbek lahçalarini organiş va ularni tasnif qiliş sahasida azmi-kopmi işlagan ozbekşunaslar bar; bularniñ har qaj-sisiniñ oziga kora tasnif asaslari va tasniflari bar.

Professor J. D. Polivanov ozbek lahçalarini tasnifda fars tili-niñ ta'sirini asasiy filgi qilib aladi va şu bilgiga sujanib ozbek lahçalarini „eranlaşgan“ va „eranlaşmagan“ dev ikkiga boladi.

Eranlaşgan bolumni ham ozara professor Palivanov 1) Taşkent-Buxara todasi va 2) otkunci (переходный) Farqana şevalari todasi dev ikkiga boladi.

Bu „eranlaşgan“ ozbek lahçasiniñ asasiy xususijati qilib profes-sor Polivanov „çanlı“ soz turlavci va soz jasavci qoşumcalarda tavuş ujqunliqiniñ tamam (?) joqalişini va unli tavuşlar sisteminin 9 dan (?) 6 qaca (?) kamajganligini aladi. Mana şu xususijatga sujanib professor Palivanov ozi eranlaşgan dev atagan ozbek lah-çasini singarmonizmsiz (несингармонистическ.) lahça dev ham atajdi. Bu singarmonizmsiz lahçaniñ Taşkent—Buxara todasiga profes-sor Palivanov Taşkent, Çizzax, Samarqand, Kattaqorqan, Oratepa, Qarşi (hazirgi Behbudij) va Buxara şaharlariniñ şevalarini kirgizadi.

U lahçaniñ ikkinci ja'ni otkunci Farqana todasiga singarmo-nizmiñ joqata bargan va 7 (?) unli tavuşga ega bolgan Qoqan, Ançan va başqa bir qanca (?) Farqana şevalarini kirgizadi.

Professor Palivanov, oz ta'birica, eranlaşmagan „şunin ucun singarmonizimli xarakterini saqlağan“ ozbek lahçasini ucka boladi:

1. „Qipcaq“ jaki „asl ozbek“ (?) todasi; bu todaga professor Palivanovniñ fikrica Ozbekistan qışlaq xalqi kopciliginiñ şevalari ham kocmanci ozbeklar şevalari kirar emiş.

Bu todaga kirgan ozbek şevalariniñ asasiy xususijalari 1) O| nin U tavuşiga ajlanışı, 2) U O| tavuşiniñ tuşib qalişi, 3) Ç tavuşiniñ J tavuşı blan almaşinuvi, 4) lar va nar ham diñ va tin qoşumca-lariniñ almaşinib kelişi, 5) X tavuşı orniga Q tavuşı kelişi va qat-tiq sozlarniñ qoşumcalarida orta (a) nin, jumşaq sozlarniñ qoşum-calarida aldingi ( x || ə) nin kelişi ham lae ujqunliqiniñ saqlanişi

emiş. Bundan bu todaga kirgan va bu todaniñ, professor Palivanov-niñ fikrica, eñ sinli (типичный) vakili bolgan qirq şevasiniñ oziga xas xususijati murakkab (diftong) unli lariniñ ja'ni ie, ye, yo va ij tavuşlariniñ soz başida kelişi emiş (!).

2. Eranlaşmagan ozbek şevalariniñ ikkinci todasini professor Palivanov „Turkmanlaşmagan“ „Şimalij ozbek“ şevalari deb atajdi. Bu todaga Turkistan şahar va rajoni, Cimkant rajoni şevalarini kirgizadi. Bu şevalariniñ Taşkent şevasiga jaqinliqini va faqat undan singarmonizmni saqlaş blangina (!)açralganligini professor Palivanov alahida qajd etadi.

3. Eranlaşmagan ozbek şevalariniñ ucinci todasiga professor Palivanov „turkmanlaşgan“ ozbek şevalari deb at beradi, bunga a) Iqan, Qarabulaq; b) Xijva (şahari) va Xarazm okruginiñ başqa bir qanca şevalari kirar emiş.

Bu todaga kirgan şevalariniñ اساسij farqi uzun unli tavuşlariniñ barligi emiş.

Professor Palivanov songi tekşirişlaridan kejin eranlaşmagan deb atagan bolumiga „qazaqlaşqan“ ozbek şevalari deb jana bir toda qoşqan; bu todaga kirgan ja'ni qazaqlaşqan ozbek şevalariniñ اساسij xususijati soz başida (j) tavuşı orniga (ç) tavuşiniñ kelişi emiş.

Korunadiki, professor Palivanov oz tasnifida, اساسij faktor qilib ozbek şevalariga cet tillariniñ fars, (Eran) turkman, Qazaq tillariniñ ta'sirlarini aladi. Palivanov fikrica şu cet ta'sir astida bir nece ozbek şevalarida singarmonizm joqalqan emiş, ba'zilarida qazaq ta'siri astida „çlaşış“ va ba'zilarida turkman ta'siri astida uzun unli-lar pajda bolgan emiş.

Biz professor Palivanovniñ tasnifidagi faktik xatalariga toxtaşni kějinga qaldirib turib, ilgari unıñ tasnifidagi metodologik janliş-lariga toxtajmiz.

Professor Palivanov bir tildagi ozgarişlariniñ va ozgalikniñ اساسij faktori qilib cet ta'sirini aladi. Şuniñ ucun u „eranlaşmagan va şuniñ ucun singarmonizm xarakterini saqlaqan (juqarida korsatilgan asarnıñ 212 betida, sonı jollarda) dejdi; şuniñ ucun Palivanov ozbek şevalariniñ bir qancasini eranlaşgan, qazaqlaşqan turkmanlaşgan deb, taçik şevalariniñ bir qancasini ozbeklaşgan deb atajdi.

Bir tilniñ ozgariş, osuş faktorini faqat taşqaridan izlaş albatta toqri emas; hadisalariniñ (xah u tabii j bolsin va xah içtimai j bolsin) osuviga va ozgaruviga اساسij sabab taşqarida emas, balki u hadisaniñ oz icidagi qozqalişida (самобвижение) dir.

„Dunjadagi hamma protseslarni ularniñ „oz qozqalişi“ (самодвижение) da, ularniñ oz kuci blan osuvida, ularniñ çanlı jaşasida biliş şarti — ularni qarşiliqlariniñ birliğida bilişdir. Osuv qarşiliqlariniñ „kuraşi“ dir. Ikki اساسij (jaki ikki mumkun bolgan? jaki ikki tarixda korinajatgan? osuv (evolutsija) nazariyasi bar: Osuv-kamajiş va kopajiş, takrardan ibaratdir va osuv — qarşiliqlariniñ birliği (bi-likniñ bir birisini ciqarib taşlajturqan ikki qarşiliqqa bolunişi va bular arasidagi munasabat) dir.

Birinci harakat nazariyasida oz-oziga qozqaliş, pənədə qaladi unıñ qozqaliş kuci, unıñ manşaj, unıñ motivi (jaki bu mənşə, taşqariqa — xuda, subjektga kocuriladi). Ikkinci nazarijada baş diq-